

PAPER

# ORTA OSIYODA CHOR ROSSIYASI VA SOBIQ ITTIFOQ XUKMRONLIGI DAVRIDA HUQUQBUZARLIKlar PROFILAKTIKASI HAqidagi TALIMOTLAR HAMDA ULARNING MOHIYATI

Xoldarov Fidokor Erkinboy oglı<sup>1,\*</sup> and Ergashboyev Abdurahmon Farhod oglı<sup>2</sup>

<sup>1</sup>Respublikasi IIV Akademiyasi Avtomobil tayyorgarlik kafedrası oqituvchisi and <sup>2</sup>Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti

\*Fidokor10@mail.ru

## Abstract

Ushbu mavzusining dolzarbliji, Huquqbazarliklar profilaktikasiga oid talimotlar rivojlanishining yana bir yangi bosqichi Chor Rossiyasi hukmronligi davriga togri keldi.

**Key words:** Osiyoda, huquqbazarliklar, Sobiq Ittifoq, profilaktikasi, mustamlakachilar, talimotlar, konseptual, berilgan.

## Kirish

Huquqbazarliklar profilaktikasiga oid talimotlar rivojlanishining yana bir yangi bosqichi bu Chor Rossiyasi hukmronligi davriga togri keldi. Bu davr nafaqat huquqbazarliklar profilaktikasiga oid talimot yoki qarashlar balki, Ozbekiston davlati va huquqi tarixida XIX asrning 60-yillardini “yangi davr”ning boshlanishi deb atash mumkin. Bu esa bevosita Turkiston olkasini, jumladan Ozbekiston hududini chor qoshinlari tomonidan bosib olinishi bilan xarakterlanadi.

Chor mustamlakachilar Markazi Osyo xududida istikomat kiluvchi turli xalklarni bir-biriga qarshi kuyish bilan ular ortasida nizoni avj oldirdi, Turkistonda madaniyat, ilm-fan, sanat, adabiyot, talim-tarbiya soxasida ham uz siyosatini amalga oshira boshladi asosiy etiborni xalqimizni milliy madaniyati, tarixidan, urf-odatlardan maxrum etishga karatdi. Chor mustamlakachilar shu siyosat asosida Olkada oz mavqelarini mustaxkamlashga xarakat kildilar. Olkada yuz bergan bu voqealar Axmad Donish, Furqat, Mukumi, Avaz Utar, Zavqiy kabi ilgor marifatparvarning dunyoqarashiga tasir kursatdi, ular chor mamurlari kollagan jabr-zulm, xaqrarat, karshiliklarga qaramay, madaniy qadriyatlarnimizni saklab kqolishga xarakat kildilar, ozlaridan oldin utgan mutafakkirlarning insonparvarlik, talim-tarbiya hakidagi marifiy fikr-goyalarini davom ettirishni oz oldilariga asosiy maksad qilib

kuydilar.

## Asosiy qism

“El-yurtimiz ozining kop asrlig tarixi davomida bunday mashum xatarlarni necha bor korgan, ularning jabrini tortgan. Shunday asoratlar tufayli tilimiz, dinimiz va manaviyatimiz bir paytlar qanday xavf ostida qolganini barchamiz yaxshi bilamiz. Ana shu fojiali ot-mish, bosib otgan mashaqqatli yolumiz barchamizga saboq bolishi, bugungi voqelikni teran tahlil qilib, mavjud tahdidlarga nisbatan doimo ogoh bolib yashashga davat etishi lozim. Oz tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yoq. Bu haqiqat kishilik tarixida kop bora oz isbotini topgan”.

Shu orinda “Q.A.Saitqulovning Huquqbazarliklar viktimologik profilaktikasining asosiy yonalishlari” nomli ilmiy risolasida quyidagi gaplarni keltirib otgan: “ Bu davrda jabrланuvchilarining jinoyat sodir etilishi roli mavjudligi togrisida dastlabki ilmiy xulosalar XVIII asrda yaratilgan. Masalan, Meremiya Bentam (1748-1832-yillar) jinoyat qonunchiligidagi jabrланuvchilariga yetkazilgan zararni qoplash va shu orgali jinoyat sodir etuvchilarining muayyan jinoyi maqsadlardan ozlarini tiyishga olib kelishini taminlash maqsadida zarur moddalar kiritilishini taklif etgan.

Yuqorida takidlab otganimizdek, Axmad Donish xam oz goya va qarashlari bilan xozirgi zamon farzand tarbiyasi, haqiqiy komil inson qanday bolishligi kerakligi togrisida bir qancha fikrlar keltirib otgan.

Axmad Donishning oqtirishicha, axlokiy tarbiyada oldinga kuyilgan maqsadga muvofik “boshqalarga foyda keltirishni uz burchi deb bilgan shaxsni yetishtirish asosiy vazifa qilib kuyilishi kerak. Yosh avlodga mexnatsevarlik, vatanparvarlik, xalqsevarlik tuygusi, boylikka xirs kuyish kabi illatlarga nisbatan nafrat xissini tarbiyalash kerak. Donishning fikricha, odamlarda ozodlikka va mustakqillikka xavas, muxabbat tuygusini tarbiyalash lozim.

Malumki, biz boshimizdan kechirgan sobiq mustabid tuzum davrida milliy manaviyatni rivojlantirishga mutlaqo yol qoyilman. Aksincha, xalqimizning tabiatni, yashash tarziga yot bolgan kommunistik mafkurani har qanday yollar va zoravonlik bilan joriy etishga harakat qilingan. Shuning uchun ham istiqlolning dastlabki kunlaridanoq bu sohadagi ahvolni tubdan ozgartirish yurtimizda eng dolzarb va hal qiluvchi vazifalardan biriga aylandi.

“Agar, deydi Axmad Donish, birov bilan suxbat qurmoqi bolsanglar, oz sifati bilan xalqqa yaqin bolgan, aqli, xushyor kishilar bilan dostlik aloqasini boglanglar. Chunki, oqil odamlar xech kimga yomonlikni xoxlamaydilar. Aklli odamlarning alomati ulardagi yaxshilikning yomonlikdan koproq bolishida yoki barobar bolishidadir. Bunday odamlar olimlar, kalam ahillari ichidan topiladi. Bularidan boshqalari bilan dostlik qilmoqchi bolsanglar, u vaktda unday odam Xech bolmaganda birorta yomon feldan saqlangan odam bulishi shardir... Agar dustlaringizning biror yomon tomonini bilsanglar va uni bu yuldan kaytarishga kuchlarining yetsa, uni kayingtinglar. Agar buni kilolmasanglar, xamma bilan yaxshi muomala bolinglar. Chunki, dunyoda aybsiz dost topilmaydi”. Axmad Donishning fikricha, xar bir inson oz Vatani uchun kypashmogi, yosh avlod egzu niyatli, ximmatli, jasoratlari kilib yetishtirilmogi, ularni xar bir ishni bajarishga ongli suratda kirishish ruxida tarbiyalanmog'i kerak. Axmad Donish axlok-odob xaqidagi qarashlarda insonparvarlik va sozlashish odobiga xam aloxida etibor beradi. Uning takidlashicha, millati va diniy karashlaridan katiy nazar odamlarni kamsitmaslik, ularga nisbatan xurmatda bulish kerak. Furkatning ijodiy faoliyatida ilm-fan, marifat xaqidagi karashlar aloxida orin tutadi. U jamiyat rivoji va xalq farovonligiga ilm-marifat orqaligina erishish mumkinligini aytib, buning uchun turli fanlarni puxta organish goyasini bayon etadi.

Uning takidlashicha, talimda axlokdy tarbiya goyat muhmidir. U samimiy dostlikni, kishilar orasidagi yakdillikni ulugladi, uzaro axllik va xamjixdtlikni targib etdi. Furqat: “...Uy tutib ultirgan xamma odamning xamsoyasi bor. Alar erta okshomda bir-birlari bilan kurishganda ittifoqlik bilan kurishsunlar. Bir-birlari bilan urush-talash aylab davo kilishmasun va muborakbodlik ishi bolsa, muborakbod kilishsun va agar bir kishi vafot kilsa, men ham boray, deb istak bildursun”,<sup>22</sup> deb uktirdi. Umuman, Furkatning pedagogik qarashlarida ifodalangan ilm-fan rivoji, uning inson kamolotida tutgan urni, Vatan va vatanparvarlik, xalkparvarlik, axloqiy tarbiya xaqidagi fikrlar huquqbuzarlikdan tiyilish rivojiga koshilgan hissa sifatida mudimdir. Dilshod Baranning marifiy, insonparvarlik goyalari. Dilshod uz marifiy karashlarida insonlar urtasidagi xam-jhatlikni, xamdamlikni eng yuksak fazilat deb biladi. U insonning insoniyligini uluglaydi, bu masalaga vijdonan va ximmatli munosabatda bolishni targib kiladi. Dilshod Baranning fikricha, inson gozalligi uning ruxiy olamidir. Ikkiyuzlamachi, xudbin odamlar makr egalaridilar. Insonning ichki dunyosi tannu-qiyofasidek gozal bolishi kerak. Insonga insoniylikni bezash uchun berilgan bu gozallikni doimo sakdash lozim. Dilshod yoshlarni ilm olishga, ilm axli bolishga davat etadi. Uning takidlashicha, ilm insonni tarix olamiga olib kiradi va bu soxada bolgan muammolarni xal kilishga yordam beradi. Bilimda kamol topgan inson yuksak obru, mavqega ega boladi, uning bilimidan xamma baxramand boladi, xatto kecha-kunduz xam undan nur oladi. Umuman, mafakkir Dilshod uz marifiy faoliyati davomida yozgan asarlarida bayon etgan talim-tarbiya xususidagi fikrlari xozirgi yoshlar tar-

biyasiда xam xizmat kilmokda.

Bugun biz tarixiy bir davrda – xalqimiz oz oldiga ezgu va ulug maqsadlar qoyib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, avvalam-bor oz kuch va imkoniyatlarga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatni qurish yolda ulkan natijalarini qolga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz. Biz oz taqqidrimizni oz qolimizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga, taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, mana shunday olijanob intilishlar bilan yashayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz, bu yolda erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan oлgani – bunday imkoniyatlarning barchasini aynan mustaqillik bergenini bugun hammamiz chuqur anglaymiz. El-yurtimiz ozining kop asrlik tarixi davomida bunday mashum xatarlarni necha bor korgan, ularning jabrini tortgan. Shunday asoratlar tufayli tilimiz, dinimiz va manaviyatimiz bir paytlar qanday xavf ostida qolganini barchamiz yaxshi bilamiz. Ana shu fojiali otmish, bosib otgan mashaqqatli yolimiz barchamizga saboq bolishi, bugungi voqelikni teran tahlil qilib, mavjud tahdidlarga nisbatan doimo ogoh bolib yashashga davat etishi lozim. Oz tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yoq. Bu haqiqat kishilik tarixida kop bora oz isbotini topgan.

Malumki, biz boshimizdan kechirgan sobiq mustabid tuzum davrida milliy manaviyatni rivojlantirishga mutlaqo yol qoyilman. Aksincha, xalqimizning tabiatni, yashash tarziga yot bolgan kommunistik mafkurani har qanday yollar va zoravonlik bilan joriy etishga harakat qilingan. Shuning uchun ham istiqlolning dastlabki kunlaridanoq bu sohadagi ahvolni tubdan ozgartirish yurtimizda eng dolzarb va hal qiluvchi vazifalardan biriga aylandi. Shu orinda biz bu ota muhim masalaga qanday etibor bergenimiz va uni bosqichma-bosqich hal qilib kelayotganimiz haqida toxtalib otish joiz, deb olayman. Jumladan, 1994-yili 22-sentyabrda parlament minbaridan yaqin tariximizda boshimizdan kechirgan voqealar, yani, millatimizning qadr-qimmati, shani va nomusi poymol qilingani, kohna tariximiz va muqaddas qadriyatlarimiz topalgani haqida quyidagi dardliiztirobli fikrlar bildirilgan va bazi bir goyat qiyin, ammo tabiiy savollar ortaga tashlangan edi:

–Ozingiz oy lab koringlar, aziz dostlar, mustabid tuzum, mustamlakachilik davrida biz kim edik?

–Taqqidrimiz, erkimiz kimlarning qolida edi? – Kaba deb qayerga siginar edik? Har tong “Assalom!..” degan madhiya ohanglari ostida kimlarga qulluq qilib uyonardik?

–Tilimiz, dinimiz qay ahvolda edi? Imom Buxoriy, Imom Ter-miziyy, Xoja Bahouddin Naqshbandlarning muqaddas xoklariga etibor bormidi? Amir Temur, Bobur Mirzo va boshqa ulug bobokalonlarimizning buyuk nomlari qaysi tuproqlarda qorishib yotgan edi?

–Milliy gururimiz, insonlik shanimiz, urf-odatlarimiz qanday tushunchalarga almashtirilgan edi? –Xosh, ozimiz-chi? Ozimiz ozligimizni bilarmidik? Qanday motabar zamin, ulug ajodolarimizning olmas meroslari bilan oziqlangan elning farzandlari ekanimizni anglarmidik?

–Aytinlar, osha kezlar Ozbekistonni dunyoda birov bilarmidi? Birov biz bilan hisoblasharmidi?

–Yurtimiz qanday va qancha beqiyos boyliklar xazinasini ekanidan qay birimiz xabardor edik?

–Goyo milliy iftixon bolmish paxta, haqiqatda milliy gurur orniga boyinturuq bolib, xalqimizni yalangoq qilishdan, boshimizga azob-uqubat, tana-malomatdan boshqa nima keltirardi?

Darhaqiqat, yaqin tarixda xalqimiz oz boshidan kechirgan bunday azobuqubatlarni, taqqidrimiz jar yoqasida turgan mashum kunnarini unutishga bizning aslo haqqimiz yoq. Turkiston olksasida Rossiya sultanati fuqarolari nufuzining tobora osib borishi ularning manfaatlari bilan bogliq ishlarni koradigan sud idoralarida ayrim ozgarishlar kiritishni taqazo etgan. Jumladan, ayrim tumanlarda sudda ish korish va tergov ishlarni bir kishiga yuklatish maqsadga muvofiq emas deb topilib, bu ishlar alohida-alohida shaxslarga yuklatilgandi. Ayrim uyezdlerda (masalan, Verniyda hozirgi Olmao-

tada) rus fuqarolari ishini koradigan sudyalar soni kopaytirilgan.

Turkiston olkasida savdo-sotiqning rivojlanishi bilan bogliq holda tuzilgan shartnomalarni notarial guvohlantirish, ehtiyojini hisobga olib, general-gubernator Kaufmanning 1880-yil 1-maydan etiboran, "Notarial qism haqidagi" Nizomi kuchga kirdi. "Nizom"ga binoan, Toshkent va Verniy shaharlarda notarial idoralar tashkil etilgan. Boshqa shaharlarda esa notariuslik vazifasi tuman sudyalariga katta notariuslik vazifasi esa, viloyat boshqarmalari sud bolimi boshliqlari zimmasiga yuklatilgan.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, Turkiston olkasini viloyatlarini boshqarishda, chiqarilgan qoidalarda ularda sud va politsiya hokimiyatini, amalga oshirishda yagona tartibning yoqligi, sezilib turardi. Buning sababi olkaning turli mintaqalarida hokimiyatni amalga oshirish turli normativ-huquqiy hujjatlarga asoslanganligi edi. Sirdaryo va Yettisuv viloyatlaridagi boshqaruv haqidagi 1867-yildagi "Nizom" loyihasi, Zarafshon okrugi general gubernator Kaufman tomonidan 1868-yilda tasdiqlangan "Vaqtinchalik nizom" Fargona viloyati 1873-yilda Kaufman tomonidan taklif etilgan "Nizom" loyihasi, Amudaryo bolimi 1874-yilda Turkiston general gubernatori tasdiqlagan "Muvaqqat" qoidalarga binoan boshqarildi.

Turkiston olkasida chor hukumatining mustamlakachilik siyosatini amalga oshirishga bevosita aloqador bolmagan mahalliy aholi ortasidagi mulkdan foydalanish, unga egalik qilish, uni tasarruf qilish, olish-sotish, ijaraga berish, hadya etish, oila va nikoh, vasiylilik va homiyilik, meros, majburiyatlar va hamkorlik bilan bogliq munosabatlarini shariat va odat qoidalarga kora tartibga kiritishga ijozat berildi. Yuqorida takidlanguanidek, Chor Rassiyasi hukmronligi davrida olka huquq tizimida xam bir qator jiddiy ozgarishlar yuz berishiga sabab boldi. Qator normativ-huquqiy hujjatlar joriy qilindi.

Ulardan 1) "Turkiston viloyatini boshqarish haqidagi muvaqqat Nizom (6-avgust 1865 y), 2) "Yettisuv va Sirdaryo viloyatlaridagi boshqaruv haqidagi Nizom" loyihasi (1867 y), 3) Zarafshon okrugini boshqarish haqidagi "Muvaqqat Nizom" (1968 y), 4) "Fargona viloyatini boshqarish haqidagi" "Nizom" loyihasi (1873 y) 5) "Amudaryo bolimini boshqarish haqidagi «Muvaqqat qoidalari» (1873 y) 6) "Turkiston olkasini" boshqarish xaqidagi Nizom (12-iyun 1868 y) 7) "Turkiston olkasining qishloq mansabdar shaxslarning huquqlari, burchlari va vakolat doiralari haqidagi" yoriqnomma (17-sentyabr 1888 y), 8) "Jinoyatlarni aniqlash va ularni sodir qilganlarni qidirib topish boyicha, Turkiston general-gubernatorligining politsiya xizmatlariga yoriqnomma" (1892-y.) 1865-yil oktyabrda tasdiqlangan "qoidalari" asosiy huquq manbalari bolib xizmat qildi. Bu kabi qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda aynan huquqbazarlik tushunchasi haqida gap ketmasa ham, uning asosiy maqsadi va mazmuni jamiyat azolarini huquqbazarlikdan tiyilishga undagan. Bu esa bevosita ushbu normativ-hujjatlarni huquqbazarliklar profilaktikasiga oid qonun hujjatlari yaratishga asos sifatida qarashga undaydi.

## Xulosa

Tarix gildiragining aylanishi bilan, avvalambor, yurt hukmdorlari va amaldorlari xalqning taqdiri va kelajagi haqida qaygurish orniga, oz shaxsiy manfaatlarni hamma narsadan ustun qoyib, jaholat va gaflatga berilib ketishi oqibatida biz bugun yashayotgan mintaqalarni umumbashariy taraqqiyot jarayonlaridan uzilib, rivojlanishdan keskin orqada qolib ketdi.

Ozaro nizo va advotlarning kuchayishi, faqat oz qobigiga, umrini otab bolgan aqidalarga oralashib yashash natijasida bir vaqt-lar buyuk madaniyat va taraqqiyot davrlarini boshidan kechirgan el-yurtimizning bu paytga kelib qanday ogir ahvolga tushib qolganini ozimizga tasavvur qiladigan bolsak, oylaymanki, kop narsa oz-ozidan ayon boladi.

Bu hayotning shafqatsiz bir qonuniyati bor. Yani, tarixning mu-rakkab va hal qiluvchi burilish pallasida har qanday millat va elat oz

ahilligi va birdamligini saqlab, oz milliy manfaatlari yolda qatiyat bilan turmasa, masuliyat va hushyorligini yoqotadigan bolsa, oxir-oqibatda ozining eng katta, tengsiz boyligi bolmish mustaqilligi va ozodligidan judo bolishi shubhasiz. Ming afsuski, ana shunday mashum qismat Turkiston xalqlarini ham chetlab otmadı: XIX asrdagi chorizm istilosı koppagina sabablar bilan bir qatorda avvalam-bor osha paytda mavjud bolgan siyosiy boshboshoqlik, hukmron kuchlarning uzoqni korolmasligi, manaviy zaifligi oqibatida roy berganini tarixiy misollar isbotlari turibdi. Bu achchiq haqiqat bar-chamizga, ayniqsa, bugun hayotga katta umid va ishonz bilan kirib kelayotgan yoshlarimizga doimo saboq bolishi lozim.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, biz oz tariximizni kolisona vahaqqoniy baholab, manaviy merosimizni boyitish va rivojlan-tirishga oz hissamizni qoshishimiz, shu asosda bugungi jahon ilmu fani va madaniyatining yuksak choqqilarini egallashdek buyuk vaz-ifaga har tomonlama munosib va qodir bolishimiz darkor.

## References

- Q.A.Saidqulov. Ichki ishlar oraganlari profilaktika xizmatlarining fuqarolik jamiyatni institutlari bilan hamkorlikni tashkil etish. T 2015y 3.2 Huquqbazarliklar profilaktikasi faoliyati. Darslik. IIV Akademiya. T 2012
- I.S.Jaxongirov.Kriminologiya. Darslik. Maxsus qism.
- J.S.Muxtorov "Ichki ishlar idoralari profilaktika xizmatlarining jinoyatlarning oldini olish faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish" Oquv qollanma T. 2012
- Q.A.Saitqulovning Huquqbazarliklar viktimalogik profilak-tikasining asosiy yonalishlari"
- Mahbuba Hamidova. Ozbekiston davlati va huquqi tarixi. Darslik. (Toshkent -2004)
- Mahbuba Hamidova. Ozbekiston davlati va huquqi tarixi. Darslik. (Toshkent -2004)